





“Kitob bizning do’stimiz” mavzusida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti kutubxonasiga kitob sovg’a qilish.

BAYONNOMASI

08.05.2025

Qatnashdilar: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti _ quyi kurslar kafedrası o’qituvchilari Mirzayeva Gulasal, Xo’shbaqova Nasiba, Xabibulloyeva Gulchehra Pedagogika fakulteti kutubxonasiga turli badiiy va ilmiy kitoblar sovg’a qilishdi.

Yig’ilish raisi: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti xorijiy til va adabiyoti – quyi kurslar kafedra mudiri V. Tangriyev –

K U N T A R T I B I D A

1. **“Kitob bizning do’stimiz”** mavzusida davra suhbat o’tqazildi.

Xorijiy til va adabiyoti kafedrası o’qituchisi V. Tangriyev navbatdagi yig’ilishini ochib berdi. Kitobning inson hayotidagi o’rni: Kitob bilim manbai ekanligi, insonni ruhan va aqlan boyitishi haqida so’z yuritildi. Hayotda to’g’ri yo’l tanlashda, insoniy qadriyatlarni shakllantirishda kitobning o’rni alohida ekanligi ta’kidlandi. Kitobning yolg’izlikda sadoqatli do’st, dardkash va maslahatgo’y bo’lishi haqida mulohazalar bildirildi. Kitob o’qish orqali turli davrlarga, xalqlarga sayohat qilish va hayot saboqlarini o’rganish mumkinligi aytib o’tildi. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, o’qilgan asarlar bo’yicha suhbat va muhokamalar tashkil etish zarurligi ta’kidlandi. Kitobga ehtirom ko’rsatish, ularni saqlash va avaylab foydalanish muhimligi eslatildi. Xulosa va tavsiyalar: Kitobni qadriga yetish, uni yaqin do’st sifatida qadrlash har bir inson uchun zarur. Har kuni hech bo’lmasa bir necha bet kitob o’qish odatini shakllantirish tavsiya etildi. Kutubxonalardan faol foydalanish va yangi asarlar bilan tanishish lozimligi haqida maslahat berildi.

Yig’ilish qaror qiladi:

1. Kutubxonalar turli badiiy asarlar va ilmiy kitoblar bilan boyitilsin;
3. Chet el asarlari bilan kutubxona boyitilsin.

Yig’ilish raisi:

V. Tangriyev

Kotiba:

M. Temirova

Tadbir jarayonidan lavhalar